



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



O'ZBEK TILINING SOHADA QO'LLANILISHIDA SOHAVIY ATAMALAR

N.S.Igamnazarova

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Ijtimoiy va aniq fanlar kafedarsi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent*

Annotatsiya: *Til – boy tariximiz, hayotbaxsh qadriyatlarimiz, dinimiz, xalqimizga xos dunyoqarashni ko'rsatuvchi ko'zgu, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazuvchi vositadir. Shuning uchun ham o'z tilini yo'qotgan millat o'zligidan mahrum bo'ladi, ma'naviy inqirozga uchraydi.*

Kalit so'zlar: *moddiy olam, me'yor, taraqqiyot, e'tibor, tafakkur, soha*

Annotation: *Language is a mirror that shows our rich history, life-giving values, religion, worldview of our people, a tool that conveys the heritage of ancestors to generations. That is why a nation that has lost its language loses its identity and suffers a moral crisis.*

Key words: *material world, norm, development, attention, thinking, field*

Keyingi yillarda mustaqillik sharofati bilan respublikamiz miqyosida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tilimiz taraqqiyotiga, xususan uning

terminologik rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. «Davlat tili haqida»gi Qonunning yuzaga kelishi munosabati bilan fanlarning turli yo'nalishlari bo'yicha atamashunoslik sohasida islohotlar o'tkazish, ularni «o'zbekchalashtirish»ga imkoniyat yaratildi.

Hatto dastlab shunday bir vaziyat yuzaga keldiki, atamalarni «milliylashtirish» ga ishtiyoq kuchayib ketdi. Tavsiyalar ham nihoyatda ko'paydi. Jo'yali fikrlar bilan bir qatorda, hazm bo'lishi qi yin bo'lgan takliflar ham o'rta tashlandi. Bu gapning tasdig'i sifatida ayrim misollarni keltiramiz: matematikariyoziyot, fakultet-kulliyot, rassom-musavvir, gazetxon-mushtariy, auditoriyasaboqxon, xona, o'quv xonasi, sirk-tomoshaxona, sirkul-pargar, sellofan, suv, qog'oz, seyf, zarf, attestatsiya-ko'rik, samolyot- aeroplan, tayyora, aeroporttayyoragoh, familiya-naslnoma, klub-da'vatxona, titul list-sarvaraq va hokazo.

Biz shaxsning kasbiy shakllanishida o'zaro aloqadorlik masalasini tadqiq etar ekanmiz, izlanishlar bugungi kunda o'zining keskin pallasiga kirganligini e'tirof etishimiz kerak. Chunki ko'pgina tadqiqotlar mavjudki, ularda kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasbiy kamolot, kasbiy faoliyatni boshqarish va kasbiy kamolotning boshqa masalalari tadqiq etiladi. Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasbiy o'zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida bir qator olimlar: L.A.Aza, G.M.Belokrilova, A.E.Golomshtok, V.I. Jukovskaya, E.A. Klimov, M.X. Titma, P.A. Shavir, M.G. Davletshin, N.Sh. Shodiyev, B.R. Qodirov, E. G'G'oziyevlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Bugungi kunda talabalar shaxsining kasbiy shakllanishidagi tasavvurlari, kasb tanlashga sabab bo'luvchi omillar va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



kasb tanlashga nimalar ta'sir ko'rsatayotganligi, kasbiy faoliyat motivlarining darajalari, shaxsiy va kasbiy maqsad, qiziqishlari hamda kasbiy qarorlari nimadan iborat ekanligini aniqlashga e'tibor qaratdik. Shunday bo'lsa ham hozirgacha ilmiy tadqiqotlarda kasb tanlashning turli xil sabablari mavjudligi aniqlangan. O'spirinlarning kasbiy o'zlikni anglashi borasidagi holatlari tahlil qilinganda, ularning kasblar to'g'risidagi tushunchalarida sayozlik mavjudligi ko'zga tashlandi. Bundan tashqari, kasbiy o'zligini anglash bilan ma'lum kasbni tanlash jarayoni o'rtasida ta'lim-tarbiya muhiti va atrofdagilarning ta'siri omillarini nazardan chetda tutmasligimiz lozim bo'ladi. Mazkur o'zaro ta'sir jarayonlaridagi dialektik bog'liqlikning o'ziyoq ushbu masalaning naqadar murakkabligidan dalolat beradi. Masalan, birgina kasbiy maslahatni tashkil etishning o'zining bir qator bosqichlari mavjud:

a) kasbiy ma'lumot bosqichida shaxs o'zi uchun mehnatni tashkil etish, ishga qabul qilish talablari, turli kasblarni egallashi, ularni tayyorlash bosqichlari va ta'lim olish muddati, mehnat haqi va kasbning istiqboli xususida ma'lumotlar oladi.

b) diagnostik bosqichda shaxsning o'z tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishlari, layoqati, qobiliyati va maqsadlarining mosligi o'rganiladi.

v) shakllantiruvchi bosqichda kasb tanlagan o'quvchi yoki shaxsga rahbarlik qilinadi, kasb tanlashdagi og'ishlarning oldi olinadi va tuzatishlar kiritiladi.

g) tibbiy jihatdan salomatligining kasbga mos kelishini aniqlash va psixologik bosqichda shaxs sifatlarining o'z tanlagan kasbga muvofiqligi masalalari muhokama qilinadi. Kasbiy o'z o'zini aniqlash bosqichni P.A.Shavirning mulohazalariga ko'ra, shaxsning kasbiy o'zligini aniqlashi qobiliyatning bo'lg'usi kasbiy talablarga mos kelishi, kasbga yaroqliligi bo'yicha o'zini to'g'ri baholashi, irodaviy sifatlar saviyasini o'stirishi, mehnatga muhabbatli bo'lishi va hayotiy tajriba singari shaxslilik asoslari talab etilar ekan. Kasb muammosini o'rganish jabhalarining keng ko'lamdagi o'z tadqiqot predmetiga egaligi bugunga qadar amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida kuzatiladi. Ushbu tadqiqotlarning bir necha yil davomida olib borilganligi va ulardan olingan natijalar ko'lamining kengligi e'tiborga molikdir. Ularning bugungi kungi izlanishlar yakunlari bilan qiyoslanishi bu boradagi qo'lga kiritilgan yutuqlarimizni boyitadi. Ammo talabalar kasbiy tasavvurlarining kasbiy shakllanishga va kasbiy faoliyatga muvofiqlashuviga ta'siri masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, qator tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularda shaxs kasbiy rivojlanishining psixologik jihatlariga asosiy e'tibor qaratilgan. Mazkur masalalarga biz quyida alohida to'xtalib o'tamiz. Ularning bugungi kungi izlanishlar yakunlari bilan qiyoslanishi bu boradagi qo'lga kiritilgan yutuqlarimizni boyitadi. Ammo talabalar kasbiy tasavvurlarining kasbiy shakllanishga va kasbiy faoliyatga muvofiqlashuviga ta'siri masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Demak, kasbiy o'zo'zini aniqlash kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik masalalaridan xabardorlik, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy yaroqlilik muhim komponentlarga bo'linadi. Quyida ularga alohida alohida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Kasbiy yo'nalganlik inson shaxsi yo'nalganligining bir ko'rinishi hisoblanib, bu holat uning chuqur shaxs tuzulmalarigacha kirib boradi. Kasbiy yo'nalganlik insonning individual-psixologik va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



individualtipologik xususiyatlarigacha, uning qadriyatlar tizimiga, steriotiplariga, qobiliyatlari va qiziqishlariga borib taqaladi. Xususiyatlarini aniqlash, shakllantirish va inobatga olishni tushunish mumkin.

Kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlashning muhim elementlaridan biri insonning kasbiy yaroqliligidir. Ma’lumki, inson, masalan uchuvchi bo‘lishga qiziqishi mumkin. Boringki, uning kasbiy yo‘nalganligi ham to‘g‘ri kelishi mumkin. Biroq u kasbiy jihatdan yaroqsiz bo‘lsa, tabiiyki bu kasbni tanlay olmaydi. Demak, kasbiy yaroqlilik ham insonning kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlashida muhim o‘rin tutadi. Kasbiy yaroqlilikning ikki xil turi farqlanadi: mutloq kasbiy yaroqlilik (bunda insondan maxsus qobiliyat talab qilinadigan kasblar uchun yaroqlilik nazarda tutiladi) va nisbiy kasbiy yaroqlilik (bunda har qanday sog‘lom inson uchun imkon darajasida bo‘lgan kasblarga yaroqlilik nazarda tutiladi). Kasbiy yaroqlilikni aniqlash bo‘yicha ma’lum bir psixologik testlardan foydalanishda analitik, sintetik va kompleks yondoshuvlardan foydalanish mumkin. A.A. Stolyarov mazkur yondoshuvlarga quyidagicha ta’rif beradi: “Analitik yondoshuv alohida psixologik ko‘rsatkichlarni o‘rganish va baholoshninazarda tutadi (masalan, diqqat, xotira, harakat kordinatsiyalari). Bu ko‘rsatkichlar tanlangan kasb bo‘yicha ta’lim va faoliyat muvaffaqiyatlari uchun zarur hisoblanadi.

Sintetik yondashuv yaxlit faoliyatni yoki uning muhim elementlarini o‘rganishni nazarda tutadi. Shuning uchun ham mazkur metod darajasida turli xil apparatlardan foydalaniladi. Bu apparatlar yordamida butun boshli kasbiy operatsiyalar modellashtiriladi. Kompleks yondashuv analitik va sintetik yondoshuvlarning qo‘shiluidan paydo bo‘ladi”.

Kasbiy ma’rifat deb tanlanadigan kasb haqida, uning ijtimoiy-psixologik va boshqa jihatlar haqida bilimlarni uzatishga aytiladi. Shuning uchun ma’lum kasbni tanlash jarayonida shu kasb haqida, uning talablari va imkoniyatlari haqida qancha ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘lishlik shu kasbni tanlashda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Darhaqiqat kasbni tanlash jarayonida kasblar olami haqidagi bilimlar, qanday qilib tanlash haqidagi bilimlari har qanday endigina hayot yo‘lining boshida turgan o‘spirin uchun juda foydali hisoblanadi. Keyingi yo‘nalish – kasbiy maslahat hisoblanadi.

Kasbiy maslahat quyidagi vazifalarni bajarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi:

A) Lug‘aviy - ma’lumot berish vazifasini bajaradi. Bu ma’lumotlar ishga joylashish kanallari, ishga kirishga qo‘yiladigan talablar, turli xil kasblarni egallash imkoniyatlari, kasbiy o‘shning kelajakdagi yo‘nalishlari haqida ish axtaruvchiga xabar beradi.

B) Diagnostik vazifani bajaradi. Bunda kasb tanlash sub’yekti shaxsini uning ma’lum shaxs xususiyatlari tanlayotgan kasb talablariga mosligi nuqtai nazardan o‘rganish haqida gap ketadi.

V) Korreksion vazifani bajaradi. Kasb tanlash sub’yektining imkoniyatlariga uning qiziqishlarini mos keltirishga qarab o‘zgartirish korreksiya deb ataladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, kasb tanlash jarayoni inson hayotidagi muhim jarayonlardan biri hisoblanib, umrning muayyan qismini tashkil qiladi hamda shaxsning ijtimoiy statusini belgilaydi. Nutq madaniyati ya’ni, nutq odobi — 1) og‘zaki va yozma



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



adabiy til me'yorlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish (tartibga solish) muammolarini o'rganuvchi bo'lim hisoblanadi. G'arb tilshunosligida umumiy ma'noda "til madaniyati" termini ham qo'llanadi. 1-ma'nodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o'zlashtirishdagi ikki bos-qichni qamrab oladi: a) nutqning to'g'riligi va boshqa nutqiy mahorat. Nutqning to'g'riligi muayyan tilda so'zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va an'anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me'yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng makbuli va ifodalisini tanlab olish mahoratidir (M: aka — oka — ako; kelyapti — kevotti — kelopti variantlaridan birining adabiy me'yor sifatida tanlanishi). Yuksak Nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi. Nutq madaniyati avvalo, to'g'ri, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda so'zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajasi madaniyatli kishining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Nutqimizni yaxshilash har birimizning vazifamiz. Buning uchun talaffuzda, so'z shakllaridan foydalanishda, jumlamani tuzishda xato qilmaslik uchun nutqimizni kuzatib borishimiz kerak.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Ushbu fanning mustaqil bo'limi sifatida, u mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e'tiborni kuchaytirishni talab qildi". Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'lik holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega. Madaniyatning keng tushunchasi, shubhasiz, aloqa madaniyati, nutq xulq-atvori madaniyati deb nomlanadigan narsani o'z ichiga oladi. Unga egalik qilish uchun nutq odob-axloqining mohiyatini tushunish muhimdir.

XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z — jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak —



nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so‘zlarning paydo bo‘lishi ham o‘zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e’tibor kuchli bo‘lganidan darak beradi. O‘tgan asrning 20-yillaridan so‘ng o‘zbek tilining Nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me’yorlariga asoslanadi. Bu me’yorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Hoshim, T. N. Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon va boshqalar), adib-u shoirlar (Qodiriy, Cho‘lpon, Avloniy, Fitrat, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar) munosib hissa qo‘shdilar. Nutq madaniyati ta’limot sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo‘lsa-da, unga qadar Misrda, Ossuriyada, Vavilon va Hindiston mamlakatlarida paydo bo‘lgan. U paytda davlat arboblarning obro‘-e’tiborlari va yuqori lavozimlarga ko‘tarilishi ularning notiqlik san’atini qay darajada egallaganliklariga bog‘liq bo‘lgan. Notiqlik san’ati sarkardalik mahorati bilan barobar qadrlangan va bu ikki san’atning mohir egalarigina yuqori lavozimlarga saylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақидаги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида” ги ПҚ -4479-сон Қарори.
2. О‘zbek tili (darslik) S.Shermuhamedova. –Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2023. - 200 b. (Adabiyot TDIU ARMda bosma va elektron shaklda mavjud)
2. О‘zbek tilini o‘rganamiz (darslik). M.Muxitdinova Toshkent. TDIU. 2022-y. 250 b. (Adabiyot TDIU ARMda bosma va elektron shaklda mavjud)
3. О‘zbek tili (elektron darslik) N.Husanov, N.Dilmurodova, R.Xo‘jaqulova 2022.244 b. (Adabiyot TDIU ARMda bosma va elektron shaklda mavjud)
4. Asadov, M. (2025, July). HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY. In Conferences (Vol. 1, No. 1).
5. Asadov, M. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus’ the stranger. American Journal of Philological Sciences, 5(03), 119-123.
6. Asadov, M. (2023). SIZIF HAQIDA MIF: KAMYU VA XURSHID DO ‘STMUHAMMAD. In Conferences (Vol. 1, No. 1).
7. Asadov, M. T. (2022). Existential interpretation of the motive of “loneliness” in the work “the stranger” by Albert Camus. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(2), 1-6.
8. Turaevich, A. M. (2022, January). LONELINESS AND ABSURDITY IS THE BASIS OF ALBER KAMYU’S CONCEPT OF ART. In European journal of science archives conferences series/Konferenzreihe der europäischen Zeitschrift für Wissenschaftsarchive (Vol. 2013, p. 30).
9. Mamatkadirovna, A. K., Mamatkadirovna, N. K., & Burxonovna, A. C. Translation as a Special Type of Language and Intercultural Communication. JournalNX, 176-180.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



10. O'roqovna, H. M., & Isomiddinovna, Z. Z. About Kutadgu Bilig And Its Interpretation In Foreign Languages. JournalNX, 185-188.

11. Karimova, A. M., & Sh, A. Z. The Problem Of Reflecting Nationality In Literary Translation. JournalNX, 428-432.

